

NAFAS OLIISH VA UNING FIZIOLOGIYASI

**Rustamova Dilfuza,
Maxammatxoshimova Gulshanoy Davronbek qizi
Andijon davlat unversiteti tabiiy fanlar
fakulteti biologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi**

Annotatsiya: Yer yuzida jamiki bor narsa albatta nafas oladi. Nafas olish (*lotincha: respiratio*) — organizmga kislorod kirib, undan karbonat angidrid (CO₂) chiqib ketishi, shuningdek, hujayra va to‘qimalarda kislorod yordamida kechadigan organik moddalarning oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari natijasida organizm hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan energiya ajralib chiqishidan iborat jarayonlar majmui.

Kalit so‘zlar: sitoplazma, diffuzli, gazlar sekresiyasi, teri, pufakchalar, kislarod, oksidlanish, moddalar almashinuvi, energiya.

Abstract: Everything on earth breathes. Breathing (Latin: *respiratio*) is a set of processes consisting of oxygen entering the body and carbon dioxide (CO₂) leaving it, as well as the release of energy necessary for the life of the body as a result of oxidation-reduction reactions of organic substances using oxygen in cells and tissues.

Key words: cytoplasm, diffuse, gas secretion, skin, vesicles, oxygen, oxidation, metabolism, energy.

Аннотация: Все на земле дышит. Дыхание (лат. *respiratio*) — совокупность процессов, состоящих из поступления кислорода в организм и выхода из него углекислого газа (CO₂), а также выделения энергии, необходимой для жизнедеятельности организма в результате окислительно-восстановительных реакций органических веществ. вещества, использующие кислород в клетках и тканях.

Ключевые слова: цитоплазма, диффузия, газосекреция, кожа, везикулы, кислород, окисление, обмен веществ, энергия.

KIRISH

Nafasning ahamiyati. Nafas olish bu organizm va uni o‘rab turuvchi atrof- muhit orasidagi gazlarning tinim siz almashinuvidir. Organizmda tinimsiz ravishda oksidlanish jarayoni bajariladi. Atrof-muhitdan tushayotgan kislorod hujayralarga yetkazib beriladi va u yerda sitoplazma tarkibiga kiruvchi yuqori molekulyar organik moddalardan ajraladigan uglerod va vodorod bilan birikadi. Organizmdan chiqarilishi kerak bo‘lgan o‘zgarishlarning oxirgi mahsulotlari - karbonat angidrid gazi, suv va boshqa birikmalar organizmga tushgan kislorodning katta miqdorini o‘zlarida saqlaydi. Kislorodning kam qismi esa hujayra sitoplazmasi tarkibiga kiradi.

Kislorod organizmni faoliyati uchun zarur bo‘lgan energiyani ajratuvchi bioximiyaviy jarayonlarning asosi hisoblanuvchi oksidlanish jarayonini ta‘min etadi. Shu sababli uning to‘qimalarini kislorod bilan yetarlicha ta‘minlamasdan organizm hayotini tasavvur qilish mumkin emas. Hayvon qanchalik murakkab darajada tuzilishga ega bo‘lsa, u kislorod taqchilligini shunchalik qiyin yengadi. Yuqori darajada rivojlangan hayvonlar, ayniqsa odamlar oksidlanish jarayonlari to‘xtashi bilan bir necha daqiqa ichida o‘ladi.

Nafas olish tiplarining evolyutsiyasi. Bir hujayrali organizmlarda - diffuzli nafas olish mavjud - ya‘ni gazlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri hujayra po‘stlog‘i orqali o‘tishidir.

Bola tug'ilganida kindigi uzilgan zahoti bola bilan ona o'rtasidagi aloqa uziladi. Natijada bola qonida karbonat angidrid miqdori oshib ketadi (chunki odatda platsenta orqali ona organizmiga o'tkaziladigan karbonat angidrid kindik uzilganligi sababli endi ona organizmiga o'tmay, balki bola qonida to'planib qoladi) va nafas markazining qo'zg'alishiga sabab bo'ladi. Oqibatda bola dastlabki marta nafas olib, o'pkaga havoni suradi. Bu vaqtda ko'krak qafasi kengayganligi tufayli, qaburg'alarining boshchalari umurtqalarning tegishli chuqurchalariga tushadi va umrbod qaytib chiqmaydi. Ayni vaqtda o'pka hajmi bilan ko'krak qafasining ichki hajmi o'rtasidagi mutanosiblik buzilib, ko'krak qafasining ichki hajmi o'pkaning tashqi hajmiga qaraganda kattaroq bo'lib qoladi. Buning o'zi ko'krak bo'shlig'idagi plevra pardalari oralig'idagi bosim alveolalardagi, atmosfera bosimidan bir munchakamroq bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Natijada, o'pkaning ko'krak qafasi faol harakatiga ergashib, umrbod passiv harakat qilishiga sharoit tug'iladi, ya'ni ko'krak qafasi kengayganida undagi bosim alveolalardagi bosimdan pastroq bo'lganligi uchun oson yoziladi, o'pka ham tezda kengayadi, ko'krak qafasi torayganda esa, o'pka ham torayib, qisiladi. Yosh hayvonlarning ko'krak qafasi o'pkasiga qaraganda tezroq o'sadi, bu esa ularning hajmi o'rtasidagi mutanosiblikning yana ham ko'proq buzilishiga sabab bo'ladi, ko'krak qafasining kengayib-torayib turishini ta'minlaydigan muskullarning doimo qo'zg'algan holda qolishiga ko'proq yordam beradi. O'pkaning ichki va sirtqi bosimlari o'rtasidagi tafovutning kelib chiqishiga o'pkaning elastikligi va ko'krak qafasining kengaya olish xususiyati katta rol o'ynaydi. O'pka parenximasi oralarida elastik muskul tolalar bor. Shu sababli odatda o'pka ma'lum darajada torayishga intiladi. Ana shu elastik muskul tolachalari hosil qilgan siqilish kuchiga o'pkaning elastiklik kuchi deyiladi. Buni kuzatish uchun hayvonda quyidagicha tajriba tajriba o'tkazsa o'tkazsa bo'ladi. bo'ladi. Hayvonni kekirdagidan bug'ib o'ldirib, shu zahoti ko'krak qafasini ochsak, o'pkasi ko'krak qafasini tuldirib yotganini ko'ramiz. So'ngra kekirdakning bog'langan Joyini ochib yuborsak, o'pka o'z elastikligi tufayli siqilib, qisila boshlaydi. Natijada ichidagi havoning anchagina qismi chiqib ketadi. O'pkaning kengayishi uchun alveolalar ichidagi bosim o'pkaning ana shu elastiklik kuchini yenga oladigan bo'lishi kerak. Odatda uni yengish uchun yetarli sharoit bo'ladi, chunki nafasga olinayotgan havo alveolalarning ichidan tashqariga tomon ma'lum bosim bilan ta'sir qiladi. Ko'krak qafasi devorining kengayishi plevra parietal varag'ini visseral varag'idan uzoqlashtirishga harakat qiladi-yu, ammo uzoqlashtirolmaydi. Lekin bu kuch o'pka sirtidagi bosimning bir muncha pasayishiga sabab bo'ladi. Mana shularning hammasi o'pkaning ko'krak qafasi harakati ketidan ergashib kengayishi va torayishiga sharoit tug'diradi.

O'pkaning tiriklik sig'imi. Moddalar almashinuvi jadallashganda organizmining kislorodga bo'lgan talab oshadi. Yosh bolalarda moddalar almashinuvi yuqori bo'lganligi uchun ularning kislorodga bo'lgan talabi juda yuqoridir. Masalan, bola organizmi tana vaznining 1kg.ni kislorod bilan normal ta'minlanishi uchun o'pkasidan 1 minutda 1400-1500 sm³, katta odam uchun esa 300-400sm³ havo o'tishi kerak. Bu esa kattalarda energiya va moddalar almashinuvi juda passiv kechishidan dalolat beradi.

O'pkaning tiriklik sig'imi inson bo'yining uzunligiga to'g'ri proporstional. Bir xil yoshdagi va bir jinsdagi insonlarda bo'yning 1 sm uzun bo'lishi o'pka hajmining 1-2 % oshganligini ko'rsatadi. Bir xil yoshdagi va bir xil bo'y uzunligidagi ayollarda o'pka hajmlari erkaklar bilan solishtirilganda 10-15 % ga kam bo'ladi. Bu ko'krak qafasi va tana hajmlarining turli nisbatlari bilan ifoda-lanadi. O'pkaning tiriklik sig'imi turli irq vakillarida ham bir xil emas. Masalan, qora tanlilarda va hindlarda o'pkaning tiriklik sig'imi oq tanlilarga qaraganda 10-15 % ga kam bo'ladi. Bu ko'krak qafasi va tana hajmlarini turlicha nisbatlarining

natijasidir. Demak oyoq qancha uzun va tana qancha kalta bo‘lsa, o‘pkaning tiriklik sig‘imi shuncha kam bo‘ladi.

XULOSA

Shuningdek, o‘pka hajmlarida ham qator o‘zgarishlar kuzatiladi. Masalan, o‘pkaning tiriklik sig‘imi va nafas hajmi har yili 10 ml ga pasayib boradi. Qoldiq hajm, anatomik o‘lik bo‘shliq havosi va nafas soni oshadi. Eng qiziqarlisi shundaki, tinch holatda o‘pkada gazlar almashinuvida hech qanday o‘zgarishlar kuzatilmaydi. Biroq arterial qonda gipoksemiya holati ro‘y beradi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘pkaning tiriklik sig‘imlari tug‘ilgandan yigirma yoshgacha ortib boradi. Yigirma va qirq yoshgacha o‘zgarmagan holda saqlanadi. Qirq yoshdan oshgandan so‘ng o‘pkaning hajmi sekin-asta kamayibboradi. Yosh o‘tishi bilan o‘pka to‘qimalarida degenerastiya ya‘ni tabiiy jarayon ro‘y beradi. Natijada o‘pka hajmlarining ayrimlari kamayib, ba‘zilari esa oshadi.

Foydalanilgan adabyotlar

1. N.Bahodirov.-Odam anatomiyasi Darslik-2006
2. A.G‘.Ahmedov.-Odam anatomiyasi Darslik-2007
3. N.K.Axmedov-Atlas odam anatomiyasi Darslik-2005 I tom
4. E.K.Qodirov odam anatomiyasi 2003
5. <https://uz.wikipedia.org/wik>
6. <https://oefen.uz/uz>